

## JAHONDA VA O'ZBEKISTONDA TEXNOGEN OMILLAR TA'SIRIDA ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI

**Axmedov Raxmuddin Ilhomovich**

Andijon QXAI assistenti

**Annotatsiya:** Atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat bizning respublikamiz olimlari, balki xorij olimlari uchun ham asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Qishloq xoja'lik yerlarining tadrijiy ortib borishi, yerlarning kimyoviy dorilar bilan ifloslanib ishdan chiqib borishiga sabab bo'lmoqda. Sanoat korxonalarining qurilishi va ishga tushurilishi atmosfera va tabiat komponentlarini ifloslanishida asosiy omildir

**Kalit so'zlar:** Jahon kimyo sanoati, olimlar tadqqotlari, kimyoviy dorilar, texnogen yerlar, atrof muhit, ekologik muammolar, tog'-kon sanoati, sug'orish me'yori

### **Kirish:**

Xo'jalik faoliyati ta'sirida atrof-muhitning ifloslanishi bilan millionlab insonlar sog'lig'iga katta ziyon yetkazilayotganligi tajribalarda tasdiqlangan. O'z o'mnida atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish hajmiga va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat bizning respublikamiz olimlari, balki xorij olimlari uchun ham asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Amerika-Kanada olimlarining birgalikda o'tkazilgan tadqiqotlari ko'rsatishicha, ishlab chiqariladigan kimyoviy mahsulotlar bir yilda 375 ming odamni zaharlar ekan. Shundan 10 mingdan ortig'i o'lim bilan yakunlangan. Chet el mamlakatlari sanoatining rivojlanishi natijasida zararli gazlarning atmosferadagi miqdori ortib bormoqda. Bu gazlarning yurtimizga havo oqimi orqali kirishi shaharlarimizdagi ifloslanish darajasini yanada kuchaytiradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida tabiat manbalaridan tejab foydalanish mamlakat xalq xo'jaligining asosiy masalasi bo'lib, uning amalda bajarilishi hozirgi kunda nafaqat har bir tashkilot faoliyatida, balki respublikamizning

davlat rejasida o‘z aksini topishi kerak. Respublikamizdagi ekologik muammolar boshqa mintaqalar ekologiyasidan keskin farq qiladi. Yoz paytida haroratning keskin ko‘tarilishi, daraxtlar va o‘simliklarni sun’iy ravishda sug‘orishni talab qiladi. Shahar hududini sug‘orish bilan uning zamini tuprog‘ida fizik, mexanik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shahar hududidan oqova suvlarning ariq orqali chiqib ketishi hamda ariqlarda doimo axlatlar yig‘ilib qolishi unda yoz paytida pashsha va hashorotlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu suvlar daryo va suv havzalariga quyilishi bilan uning tarkibini butunlay buzadi. O‘zbekistonning geografik joylashishi ham ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Hududimizning deyarli 4/5 qismi tekisliklardan iborat. Tog‘lar asosan sharqda joylashgan: shimolda Tyanshan, janubda Hisor-Oloy tog‘i, Respublika hududida dengiz sathidan baland bo‘lgan tog‘ cho‘qqilari bor. O‘zbekiston hududiga tushadigan radiatsiya miqdori 1km<sup>2</sup> yuzaga 100-120 ming kkal energiya tashkil qiladi. Bu Rossiya sharoitiga nisbatan 2 marotaba, Yevropa mamlakatlariga nisbatan bir yarim barobar ko‘p demakdir.

Ba’zi joylarda yog‘in-sochin miqdori 70-80 mmdan oshmaydi, faqat tog‘li tumanlarda uning miqdori 500-600 mmgacha yetadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududida yog‘in-sochin miqdori notejis tarqagan. Shunday qilib yog‘ingarchilikning ko‘p qismi qish va bahor paytlariga to‘g‘ri keladi. Potentsial (yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan) imkoniyatlarga ko‘ra respublika hududlarining landshaft bo‘yicha 3 ta asosiy qismga bo‘linadi cho‘ladir tog‘-yaylov mintaqalari. Respublikaning tabiiy sharoiti undagi ishlab chiqarish kuchlari va aholini shunga qarab taqsimlaydi hamda ishlab chiqarish kuchlarining kelajakdagi rivoji uchun quyidagi omillarni ko‘zda tutadi.

- barcha mehnatga yaroqli aholini to‘lig‘icha ish bilan ta’minlash.
- tabiiy xomashyo, suv manbalari, foydali qazilmalar, qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan tejab foydalanish.
- to‘liq shakllangan xo‘jaliklarni har taraflama rivojlantirish va respublika ichkarisida ishlab chiqarishni taqsimlash va hududlar bo‘ylab ishlab chiqarish vositalarini uyg‘unlashtirish.

- asta-sekinlik bilan respublikani agrar sanoatlashgan holatdan, sanoatlashgan – agrar holatga o‘tkazish.

- respublikalar va tumanlar orasida transport iqtisodiy aloqalarini yaxilash hamda rivojlanТИRISH.

Yurtimizda iqtisodiy rivojlanish ta’sirida ko‘plab hududlarda bartaraf etib bo‘lmas chiqindixonalar yuzaga kelmoqda. Masalan, Bekobod shahrida ruxsat etib bo‘lmaydigan masofada tozalash stantsiyasi yaqinida axlat to‘kadigan maydon joylashgan. Shuning uchun ham chiqindilarni yoqib yuborish va ularni yer osti suvlariga shimilib ketishi shahar atrof-muhitini buzadi. Shuningdek Olmaliq, To‘yepa va Yangiyo‘l, Qibray shaharlari tashqarisidagi ekin maydonlari o‘rnida juda katta chiqindi plantatsiyalar yuzag kelgan.

Qishloq xo‘jlining rivojlanishi va atrof muhitning ifloslanishi. Pestitsidlardan ko‘plab foydalanish, muhitning ifloslanishi, ekinzorlar orasida katta maydonlari salmog‘ining ortishi va shu tufayli yurak qon-tomir, oshqozon-ichak, hamda yuqumli kasalliklarning ko‘payib borishi o‘rtasida katta qorellyatsion bog‘lanishlar mavjud edi. Issiq kunlarning uzoq davom etishi, shu davrda pestitsidlarning qo‘llanilishi ustiga tabiiy obodonlashtirish ishlarining qoniqarsiz darajada bo‘lishi inson tanasining umumbiologik himoya tizimlarini kuchsizlantiradi va uning sog‘lig‘ini yomonlashtiradi. O‘zbekiston shaharlarida sanoatning kun sayin o‘sib borishi bilan bog‘liq holda sanoat korxonalarining aholi yashaydigan hududlardagi egallagan o‘rni ortib bormoqda. Bularning o‘sib borish nisbati ekologik noqulayliklar bo‘yicha tibbiy zaharlanish I-III tur darajasini tashkil qiladi.

Muhitning sog‘lomligi, qulayligi inson bilan uning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bilan baholanadi. Muhit ekologik nuqtai nazardan nosog‘lom yoki noqulay bo‘lishi mumkin. Yuqori darajada ifloslangan muhit inson sog‘lig‘iga tuzalmas darajada ta’sir qiladi. Xuddi shuningdek super fosfat zavodidan chiqqan zararli chiqindilar (10 km doirani qamrab olgan) ta’siridan 30% mакtab o‘quvchilari surunkalik tanzillit kasalligiga duchor bo‘lganlar. Hozirda muhitni yaxshilash borasida olib borilayotgan ayrim tibbiy va tabiatni muhofaza qilish tadbirлari qoniqarli deb bo‘lmaydi. Buning

uchun uyg‘unlashtirilgan, ilmiy-texnik jihatdan asoslangan barcha tadbirlarni qo‘llash zarur

Ushbu ma’lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki,Dunyoda hosil bo‘layotgan global,regional va mahalliy muammolarning asosiy qismi antropogen omillar ta’sirida,kam qismi esa tabiiy omillar ta’sirida yuzaga kelmoqda.Aholi sonining ortib borishi yer resurslaridan yanada ko‘p foydalanishga majbur qilmoqda.Buning negizida Tabiiy unsurlarga jiddiy zarar keltirilib avvalgi holiga qaytarish juda katta mablag‘ va mehnat talab qilmoqda.Buning uchun insoniyat imkon darajasida resurslardan me’yorda foydalanishi,kam chiqindili va kam material talab qiluvchi ishlab chiqarish usuliga o‘tmog‘i lozim

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh.Otaboev, M.Nabiev. Inson va biosfera. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1995.
2. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. T.A.Abdurahimov, Z.A.Jabborov Tuproqlarni ifloslanish muammolar va muhofaza qilish tadbirlari. Toshkent. 2007.
4. K.X. Roziqov, S.S.Negmatov, B.B.Sobirov Atrof-muhit ekokimyosi. Toshkent 2012.
5. M.N.Musayev Sanoat chiqindilatini tozalash texnologiyasi asoslari. Toshkent 2011.

### **Internet saytlari**

6. W.W.W.uznature.uz.
7. W.W.W.econews.uznature.uz.